

Termiz shahridagi vaqtincha ishsiz fuqarolar mavsumiy ish bilan band



Termiz shahridagi vaqtincha ishsiz fuqarolar mavsumiy ish bilan band Jahon ipak bozorida ipak mahsulotlariga bo'lgan talabning tobora oshib borayotganligi o'z navbatida mamlakatimizda pilla yetishtirish hajmlarini bosqichma-bosqich oshirishni taqozo etmoqda. Xalqimiz pillachilik bilan azaldan shug'ullanib keladi. Bugun ham yurtimizda ipak qurti boqish hadisini puxta o'zlashtirgan oilalar ko'p. Ular oddiy sharoitda ham har quti ipak qurtidan 65 kilogramdan oshirib sifatli hosil yetishtiradi. Xalqimiz pillachilik bilan azaldan shug'ullanib keladi. Bugun ham yurtimizda ipak qurti boqish hadisini puxta o'zlashtirgan oilalar ko'p. Ular oddiy sharoitda ham har quti ipak qurtidan 65 kilogramdan oshirib sifatli hosil yetishtiradi.

Aytish kerakki, uzoq yillar mobaynida pillakorlar ipak qurtini qancha mashaqqat evaziga boqib keldi. Garchi jonivorlar parvarishi qiska muddat davom etsa-da, ipak qurti olgan oilaning katta-kichik barchasi bir oy shu tashvish bilan ovora edi. Oilaviy to'rt-besh nafar a'zosi sokin sahardan tunning allamahalgacha tutzordan barg kesib keltirish, bargni novdasidan ajratish va qurtxonaga solib, yayratish bilan band bo'lardi.

Jonivorlar kattargan sari oziqa – bargga talab ortar, ba’zida zvenolar barg topish ilinjida har tomonga chopardilar. To’rtinchi-beshinchi yoshdan keyin barg topish tashvishidan tashqari, pilla o’rashi uchun qir-adirga chiqib mingbosh, shuvoq, yovvoyi supurgi kabi dastabop o’simliklar izlardi. Keyingi yillarda sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar samarasida pillakorlar mehnati har tomonlama yengillashayapti. Termiz shahridagi "Namuna" MFysining vaqtincha ishsiz fuqarolari bugungi kunda mavsumiy ish bilan ta’minlanmoqda. O’z xonadonlarida ipak qurti yetishtirmoqda.

